



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKI

ЦЕНТРАЛЬНЫЙ БАНК
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

THE CENTRAL BANK OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100001. O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Islom Karimov ko'chasi, 6.
Tel.: (+99871) 212-60-21, 212-62-99. 200-00-44, 233-32-70, Faks: (+99871) 233-79-39.
www.cbu.uz. info@cbu.uz, cbu@exat.uz

100001, Республика Узбекистан,
г. Ташкент, улица Ислама Каримова, 6

6, Islam Karimov street, 10001, Tashkent,
Republic of Uzbekistan

«09» iyul 2026 yil № 26-20/2127

Tijorat banklariga

(ro'yxat bo'yicha)

Markaziy bank tomonidan ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilingan onlayn mikroqarzlarni ajratilishi jarayonida sug'urta polisi uchun sug'urta mukofoti mijoz hisobidan yoki ajratilayotgan mikroqarz hisobidan ushlab qolinishi, biroq kredit muddatidan oldin to'liq so'ndirilgan taqdirda sug'urta shartnomasining foydalanilmagan davri uchun sug'urta mukofotining tegishli qismi mijozlarga qaytarilmasligi yoki qaytarish tartibi yetarli darajada sodda va tushunarli tashkil etilmaganligi haqidagi xabar o'rganib chiqilmoqda.

Ushbu holat yuzasidan iste'molchilarga to'g'ri, xolis va tushunarli axborot yetkazish maqsadida onlayn mikroqarzlarni va boshqa chakana kredit mahsulotlari bilan bog'liq holda sug'urta mahsulotlarini taklif etayotgan tijorat banklari o'z rasmiy kommunikatsiya kanallarida mazkur masala bo'yicha pozitsiyasini e'lon qilishi lozimligi bildiriladi.

Bunda banklar o'z rasmiy veb-sayti, mobil ilovasi, ijtimoiy tarmoqdagi sahifasi va boshqa rasmiy axborot kanallari orqali quyidagi masalalar yuzasidan iste'molchilarga tushuntirish berishi lozim:

bank tomonidan onlayn mikroqarzlarni ajratilishi jarayonida sug'urta mahsulotlari taklif etilishi yoki etilmasligi;

agar taklif etilsa, ushbu sug'urta mahsuloti mijoz uchun ixtiyoriyligi yoki kredit ajratishning majburiy sharti hisoblanishi;

sug'urta mukofoti qaysi manba hisobidan to'lanishi (mijoz hisobvarag'idanmi, kredit summasidanmi yoki boshqa manbadanmi);

sug'urta mahsulotini taqdim etayotgan sug'urtalovchi tashkilotlar ro'yxati;

bank ushbu jarayonda qanday maqomda ishtirok etishi (kreditor, sug'urta agenti yoki texnik axborot kanali sifatida);

kredit muddatidan oldin to'liq so'ndirilganda sug'urta shartnomasining foydalanilmagan davri uchun sug'urta mukofotining tegishli qismi qaytarilishi yoki qaytarilmasligi;

agar qaytarilsa, bu avtomatik tarzda amalga oshiriladimi yoki mijoz kimgadir murojaat qilishi lozimmi (bankkami yoki sug'urta tashkilotigami) hamda murojaatni qanday tartibda yuborilishi (mobil ilova, sayt, bank ofisi, sug'urta tashkiloti ofisi, call-markaz yoki boshqa kanal orqali);

sug'urta mukofotini qaytarish muddatlari va zarur hujjatlar ro'yxati;

bank amaliyotida ushbu yo'nalishda kamchiliklar mavjud bo'lsa, ularni bartaraf etish bo'yicha ko'rilayotgan choralar.

Shuningdek, agar ijtimoiy tarmoqda bildirilgan holatlar bank amaliyotida kuzatilmagan bo'lsa, bank ushbu holatni asoslangan tarzda rad etishi hamda amaldagi tartibni iste'molchilarga sodda tilda tushuntirishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Agar bank amaliyotida kredit ajratish bo'yicha olingan sug'urta mukofotini qaytarish jarayonida mijozlar uchun noqulayliklar, tushunmovchiliklar yoki texnik cheklovlar mavjud bo'lsa, bank ushbu holatlarni tan olib, ularni bartaraf etish bo'yicha aniq choralar va muddatlarni ochiq e'lon qilishi lozim.

Banklar tomonidan e'lon qilinadigan axborot umumiy xabar yoki mavhum raddiya shaklida emas, balki iste'molchi uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lgan aniq tushuntirish shaklida bo'lishi zarur.

Tijorat banklaridan mazkur xat yuzasidan amalga oshirilgan ishlar, e'lon qilingan axborot va ma'lumotlar havolalari va mijozlarga berilgan tushuntirishlar haqida **2026-yil 16-iyulga qadar** Markaziy bankka ma'lumot taqdim etish so'raladi.

